

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov</b>	
Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
<b>Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev</b>	
Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi .....	203
<b>X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova</b>	
Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi.....	207
<b>M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov</b>	
Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
<b>M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev</b>	
11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
<b>U.Yusupaliyev, T.Amirov</b>	
Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari .....	222
<b>N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,</b>	
NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi .....	229
<b>I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov</b>	
Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili .....	237
<b>F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova</b>	
Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi .....	240

## BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

<b>I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova</b>	
<i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari .....	245
<b>N.Abdullayeva, M.Davidov</b>	
Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari .....	250
<b>A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov</b>	
Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash .....	254
<b>R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova</b>	
Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri.....	258
<b>G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov</b>	
Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi .....	262

## ILMIY AXBOROT

<b>A.Bababekov</b>	
Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil) .....	268
<b>S.Ruziyeva</b>	
O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari .....	274
<b>O.Abobakirova</b>	
Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati .....	278
<b>D.Nasriyeva</b>	
Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
<b>I.Raufov</b>	
O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari .....	287
<b>N.Jumaniyazova</b>	
O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili .....	290
<b>E.Nasrullahov</b>	
Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

## GOSSIPOLNING BENZIDIN BILAN YANGI SHIFF ASOSLARI SINTEZI

### СИНТЕЗ НОВЫХ ШИФФ ОСНОВАНИЙ ГОССИПОЛА С БЕНЗИДИНОМ

### SYNTHESIS OF NEW SCHIFF BASES OF GOSSYPOL WITH BENZIDINE

Turg'unboyev Shavkatjon Shuhratjon o'g'li<sup>1</sup>, Toshov Hamza Sayidmurodovich<sup>2</sup>,  
Xaitbayev Alisher Xamidovich<sup>3</sup>

<sup>1</sup>Turg'unboyev Shavkatjon Shuhratjono'g'li

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<sup>2</sup>Toshov Hamza Sayidmurodovich

– O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<sup>3</sup>Xaitbayev Alisher Xamidovich

– O'zbekiston Milliy universiteti professori, kimyo fanlari doktori

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizda keng tarqalgan g'o'za o'simligidan ajratib olinadigan gossipol moddasining benzidin bilan turli nisbatlarda yangi Schiff asoslarini sintez qilish, sintez qilingan yangi birikmalarning ayrim fizik-kimyoviy xossalarni tekshirish, olingan Schiff asoslarining ayrim 3d metallar bilan metallokomplekslarini olish va ularning xossalarni tekshirish usullari bayon etilgan.

#### Аннотация

В данной статье описаны синтез новых оснований Шиффа субстанции госсипола, выделенной из хлопчатника обыкновенного в нашей республике, бензидином в различных соотношениях, исследование некоторых физико-химических свойств новых синтезированных соединений, получение металлокомплексов полученных оснований Шиффа с некоторыми объемными металлами и методы контроля их свойств.

#### Abstract

This article describes the synthesis of new Schiff bases of the gossypol substance, isolated from common cotton in our republic, with benzidine in various ratios, the study of some physicochemical properties of the new synthesized compounds, the preparation of metal complexes of the obtained Schiff bases with some bulk metals and methods for controlling their properties.

**Kalit so'zlar:** gossipol, benzidin, Schiff asoslari, metallokompleks, benzol, atseton, spirt, geksan.

**Ключевые слова:** госсипол, бензидин, основания Шиффа, металлокомплекс, бензол, ацетон, спирт, гексан.

**Key words:** gossypol, benzidine, Schiff bases, metal complex, benzene, acetone, alcohol, hexane

#### KIRISH

Bugungi kunda yangi biologik faol moddalar sintezi, ular asosida tibbiyotda virus kasalliklarini davolash va profilaktika qilish, turli xil etiologiyali immunotanqisliklar uchun yangi dori vositalarini yaratish muammosi, hozirgi kun bioorganik kimyosining asosiy vazifalaridan biri bo'lishiga sabab, VICH-infeksiyasini, gepatit B, C va yangi respirator virus infeksiyalarining (parranda grippi) borgan sari keng tarqalishidir. Yangi dori vositalarini yaratishning perspektiv yo'llaridan biri yangi biologik faol moddalarni mavjud tabiiy birikmalarni va ularni hosilalarini, o'zgartirilgan analoglarini qidirishdan iborat. Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dorivor vositalarning uchdan bir qismini o'simlik moddalaridan ajratib olingan dori preparatlari tashkil qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda respublikamizda keng tarqalgan g'o'za o'simligidan olinadigan gossipol moddasining tarkibida turli -NH<sub>2</sub> guruh tutuvchi birikmalar bilan yangi Schiff asoslarini sintez qilish, olingan hosilalarning fizik-kimyoviy xossalarni, biologik faoliyklarini: jumladan, turli virusli kasalliklarga qarshi faolligini tekshirish dolzarb muammolardan biri sanaladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi vaqtida turli xil yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi viruslar soni kundan kunga ortib bormoqda, bunday viruslarga qarshi faoliykn nomoyon qiladigan yangi moddalar sintez qilish va ularni tibbiyotga tadbiq qilish muhim hisoblanadi. Bunday xossaga ega bo'lgan moddalarning


biri bu gossipol moddasidir gossipolning o'zi bir qancha viruslarga qarshi faollikni nomoyon qiladi [1]

Paxta tarkibidan ajratib olinayotgan gossipol moddasi o'zining turli xil kasalliklarga qarshi, shu jumladan o'simtali rakka qarshi, immunosupressiv, parazitlar va turli xil viruslarga qarshi xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga egadir. Gossipol polifunksional birikma bo'lib, kimyoviy jarayonlar natijasida kerakli mahsulotlar hosil qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan keng qo'llaniladigan birikmalardan biri hisoblanadi. 60-yillardan boshlab gossipol asosida turli xil hosilalarni sintez qilish ishlari olib borildi va natijada tibbiyot uchun o'ta zarur bo'lgan dori vositalari-megosin, batriden, gazolidon, mebavin, rometin, ragosin va boshqalar yaratildi. Keyingi yillarda olib borilgan ishlar shuni ko'rsatmoqdaki gossipolning turli xil aminobirikmalar bilan olingan hosilalari gossipolga nisbatan yuqori fiziologik faollikga ega ekanligi aniqlangan [2].

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi kabi ma'lumotlarga tayangan holda ushbu ishimizga quyidagicha maqsad qo'yidik: gossipol bilan benzidinning Schiff asosini sintez qilish va olingan moddani biologik faolligini oshirish maqsadida uning ayrim  $3d$  ( $Cu^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Co^{2+}$ ,  $Mn^{2+}$ ) metall tuzlari bilan metallokomplekslarini olish. Sintez qilingan barcha moddalarning ayrim fizik-kimyoviy doimiyliklarini o'rganish va ularning tuzilishini UB, IQ, spektrlari yordamida tekshirish.

Gossipolning benzidine bilan Schiff asoslari olish reaksiyasi quyidagi sxema bo'yicha olib borildi:



Shiff asoslari gossipolga nisbatan 1:1 va 1:2 nisbatda sintez qilindi va ularning ayrim fizik-kimyoviy doimiyliklari o'rganildi. Natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

**Jadval №1**

#### Sintez qilingan gossipolning azometin hosilalari va ularning ayrim fizik-kimyoviy konstantalari:


Birikma	Radikal – R	Ervchanlik	$T_{suyuq, ^\circ C}$	$R_f$	Reaksiya unumi	
					gr da	%-da
(I)	$H_2N-C_6H_4-C_6H_4-NH_2$ (1:1)	Benzol Aseton DMFA Toluol Geksan Spirt	275- 276	0,18* 0,36**	0,18	73
(II)	$H_2N-C_6H_4-C_6H_4-NH_2$ (1:2)	Benzol Aseton DMFA Toluol Geksan Spirt	280	0,22* 0,42**	0,24	80

**Sistema:**\*1 – Geksan : Aseton (4 : 1)

\*\*2 – Geksan: Aseton (2 : 1)

Jadvaldan ko'rinish turibdiki 1:1 nisbatda sintez qilingan Schiff asosiga nisbatan 1:2 nisbatda sintez qilingan Schiff asosining unumi yuqori ekan. Shundan kelib chiqib, metallokomplekslar sintezini 1:2 nisbatda olingan Schiff asosi yordamida olib bordik.

Metallokompleks hosil bo'lish reaksiyasi quyidagi sxema bo'yicha boradi:



## KIMYO

Jadval №2

## Sintez qilingan metallokopleks birikmalarining ayrim fizik-kimyoiy konstantalari:

Birikma	Metallokopleks	Mol nisbati	Eruvchanlik	T <sub>suyuq, 0S</sub>	R <sub>f</sub>	Rangi	Reaksiya unumi	
							%	Gr
1.	II+Ni(CH <sub>3</sub> COO) <sub>2*</sub> 4H <sub>2</sub> O	2:1	DMSO DMFA Toluol Aseton Benzol	290	0,2* 0,49**	Malla	73	0.14
2.	II+Su(CH <sub>3</sub> COO) <sub>2*</sub> H <sub>2</sub> O	2:1	DMSO DMFA Toluol Aseton Benzol	300<	0,29* 0,4**	To'q binafsharang	86	0.16
3.	II+Mn(CH <sub>3</sub> COO) <sub>2*</sub> 4H <sub>2</sub> O	2:1	DMSO DMFA Toluol Aseton Benzol	296-297	0.16* 0.33**	Binafsharang	63	0.12
4.	II+Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2*</sub> 6H <sub>2</sub> O	2:1	DMSO DMFA Toluol Aseton Benzol	292	0,39* 0,58**	Qizg'ish malla	59	0.11


Sistema: \*1 – Geksan : Aseton (4 : 1)

\*\*2 – Geksan: Aseton (2 : 1)

Olingen moddalarning tuzilishini tekshirish maqsadida ularni O'zR FA ning O'simlik moddalari kimyosi inistitutidagi SF-26 spektrofotometrida UB–spektri, UR-20 apparatida kyuvetaning qalinligi 10 mm bo'lgan moslamada KBr tabletkasi ko'rinishida IK-spektrlari olindi. Moddalarning suyuqlanish harorati maxsus moslamalar yordamida aniqlandi.

UB va IQ spektrlari 400 rmm da olinib ular tahlil qilinganda quyidagi natijalar olindi.

Shiff asosi hosil bo'lganida ham, metallokopleks hosil bo'lganida ham gssipol UB spektriga nisbatan keskin o'zgarishlar kuzatildi. Gossipoldagi 375 nm sohaning Schiff asosi spektrida yo'qolgan, metallokopleks spektrida esa uzoq to'lqin sohasida intensiv keng polosalarning chiqishi kuzatildi.



Rasm. 1. Boshlang'ich va hosil bo'lgan moddalarning solishtirma IQ spektri.  
1-Gossipolning benzidinli Schiff asosining Cu<sup>2+</sup> bilan hosil qilgan metallokopleksi.

**2-Benzidin. 3-Cu(CH<sub>3</sub>COOH)<sub>2</sub>\*H<sub>2</sub>O. 4-Gossipolning benzidinli Schiff asosi.**

Gossipolning strukturasi oltita –OH guruhi, ikkita karbonil, ikkita metil, ikkita izopropil hamda naftalin halqasidan iborat. Bu moddaning IQ spektrida 3495 sm<sup>-1</sup>, 3424 sm<sup>-1</sup> sohalarda –OH guruhiga tegishli bo'lgan valent tebranish chastotalarini ko'rishimiz mumkin. 1614 sm<sup>-1</sup> va 1441 sm<sup>-1</sup> soha oraliq'i ikkita naftalin halqasidan darak beradi. 1712 sm<sup>-1</sup> sohada aldegid guruhining karbonil bog'i valent tebranishlari hisobiga yuzaga kelgan intensiv cho'qqini ko'rishimiz mumkin.

Benzidin molekulasi ikkita fenil va ikkita birlamchi amino guruhdan tashkil topgan. Benzidinning IQ spektrida 3456 sm<sup>-1</sup>, 3350 sm<sup>-1</sup>, 3327 sm<sup>-1</sup>, 3289 sm<sup>-1</sup> sohalarida birlamchi amino guruhlarga tegishli bo'lgan valent tebranishlar hisobiga kelgan yutilish chastotalarini ko'rishimiz mumkin. 1659 sm<sup>-1</sup> va 1501 sm<sup>-1</sup> sohalar oraliq'ida ikkita fenil guruhining deformatsion tebranishlari natijasida hosil bo'lgan yutilish maksimumlariga guvoh bo'lamiz. 815 sm<sup>-1</sup> sohada yutilish bergen intensiv cho'qqi Ar-C bog'inining deformatsion tebranishlari hisobiga yuzaga kelgan.

Gossipol va benzidin molekulaside 1:2 nisbatda tarkib topgan gossipolning benzidinli Schiff asosi spektrini yuqorida boshlang'ich moddalar spektri bilan solishtirma tahlil qilinganda quyidagi natijalar olindi. Schiff asosini asosiy xarakterlovchi bog' bu, gossipoldagi karbonil va benzidinning birlamchi aminoguruhi orasida hosil bo'lgan Azometin bog'idi. Yuqorida aytilib o'tganimiz 1712 sm<sup>-1</sup> sohodagi karbonil bog'ga tegishli bo'lgan yutilish maksimumlarining Schiff asosi spektrida ko'rinnmay qolishi, xuddi shuningdek benzidin molekulaside 3456 sm<sup>-1</sup>, 3350 sm<sup>-1</sup>, 3327 sm<sup>-1</sup>, 3289 sm<sup>-1</sup> sohalarida birlamchi amino guruhlarga tegishli bo'lgan valent tebranishlarning ham Schiff asosida ko'rinnmay qolib, hosil bo'lgan yangi strukturada 1616 sm<sup>-1</sup> - 1600 sohada yangi hosil bo'lgan bog'ning ya'ni azometin bog'ining valent tebranishlari hisobiga yuzaga kelgan yutilish maksimumini ko'rish mumkin. Benzidin moddasi spektridagi 1501 sm<sup>-1</sup> sohaning Schiff asosi spektrida ham yutilish berishi bu fenil guruhining Schiff asosi tarkibida borligidan dalolat beradi.

Gossipolning benzidinli Schiff asosining Cu<sup>2+</sup> asetat tuzi bilan hosil qilgan metallok kompleksining IQ spektrini tahlil qilanimizda quyidagicha natijalar olindi. Bunda Schiff asosining IQ spektridan farqli o'laroq metallok kompleks spektrida azometin bog'i valent tebranishlarning 1619 sm<sup>-1</sup> sohaga surilganini ko'rishimiz mumkin. Bu surilish, azometin bog'i hosil bo'lishida qatnashayotgan azot atomining metallok kompleks tarkibida Cu<sup>2+</sup> bilan donor-akseptor bog' hosil qilib bog'lanishi najasida yuzaga keladi. Xuddi shunday benzidin molekulaside Ar-C bog'iga tegishli bo'lgan 815 sm<sup>-1</sup> sohaning metallok kompleks spektrida 818 sm<sup>-1</sup> sohaga surilganiga guvoh bo'lamiz.

Shuningdek Schiff asosidagi –OH guruhiga tegishli bo'lgan 3485 sm<sup>-1</sup> sohaning metallok kompleks spektrida 3422 sm<sup>-1</sup> sohagacha surilganini hamda 3288 sm<sup>-1</sup> sohada yangi yutilish maksimumining paydo bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'zgarishlar Schiff asosidagi 7-OH dagi kislorod atomi bilan Cu<sup>2+</sup> orasida kovalent bog' hosil bo'lishi bilan bog'liq deyishimiz mukin. Shunga bog'liq ravishda metallok kompleks spektrida 544 sm<sup>-1</sup> va 610 sm<sup>-1</sup> sohalarda yangi yutilish maksimumlarini ko'rishimiz mumkin. Bu cho'qqilar metall-kislorod va metall-azot bog'lariga tegishli bo'lgan cho'qqilardir.

1963 sm<sup>-1</sup>, 2929 sm<sup>-1</sup>, 2873 sm<sup>-1</sup> sohalarda metallok kompleks tarkibidagi –NH<sub>2</sub> guruhining valent tebranishlari hisobiga yuzaga kelgan yutilish masimumlarini ko'rishimiz mumkin.

**XULOSA**

Turli viruslarga qarshi yuqori faoliykg'a ega bo'lgan gossipol moddasining biologik faolligini oshirish maqsadida benzidin bilan turli nisbatlarda yangi Schiff asoslari sintez qilinib ularning ayrim fizik-kimyoiy xossalari tekshirildi. Yangi sintez qilingan Schiff asoslarining ayrim 3d metallari bilan metallok komplekslari olinib, ularning ayrim xossalari o'rganildi. Olingan natijalardan ko'rinnadi, gossipol asosida benzidin bilan turli nisbatlarda Schiff asoslarini, olingan Schiff asoslarining turli metal ionlari saqllovchi metallok komplekslarini olish va ularning biologik faolliklarini tekshirish asosida yangi dorivor moddalarni olish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- Хайтбаев А.Х., Тилябаев З., Ачилова Г., Хайтбаев Х.Х. Синтез и биологическая активность некоторых производных госсипола // Химия природн. соедин. -1995. -№1. -С.56-58
- Маркман А.Л. Ржехин В.П. Госсипол и его производные. М.: Пищ. Пром-т. 1965.с. 250.
- Toshev H.S, Xaitbayev A. X Turdiqulov I. X. Gossipol asosida yangi azometin hosilalarini sintez qilish. Tabiiy birikmalaridan qishloq xo'jaligidagi foydalanish istiqbollari Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari to'plami GulDU. Guliston. 2013y. 4-5 may. 69-71-betlar.